

KOMIL INSON TARBIYASIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANINING AHAMIYATI**Yakubova Dilafruz Tog'aymurodovna****Artikova Fazilat Daminovna***Surxondaryo viloyati Denov tumani 80-maktabning**ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari*

Annotatsiya: *Ta'lim rivojining buguni va istiqboli bugun sinfda dars berayotgan o'qituvchiga ko'p jihatdan bog'liq. Zero, o'qituvchi maktabda asosiy figura hisoblanar ekan, u o'ziga bildirilgan ishonch, yosh avlod tarbiyasidek murakkab, mas'uliyatli vazifani sidqidildan bajarmog'i zarur. O'qish sifatini yanada oshirish davr talabi bo'lib qolgan shu kunlarda darslarni noan'anaviy usulda olib borish keng yo'lga qo'yilgan.*

Kalit so'zlar: *turkiy tillar, davlat tili, ijobiy intilish, ehtiyojni shakllantirish, so'zlay va fikrlay olish qobiliyatlari.*

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, hozirgi kunda ushbu til Yer yuzi aholisining qariyb 50 million aholisi uchun asosiy muloqot vositasidir. Shunday ekan, tilimizning mavqeyiga qaratiladigan e'tibor ertangi avlodning kelajagi haqida qayg'urishimizning muhim asosi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi va nufuzini oshirish, jamiyatning barcha sohalarida faol qo'llanilishiga erishish, yosh avlodni ona tilimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida 2019-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5850-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi, barcha davlat organlarida davlat tilida ish yuritish shart qilib qo'yildi. Davlat organlarida rahbarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tilida ish yuritishni rivojlantirish bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy qilindi.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda

istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida 2020-yil 20-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni bilan 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022 yillarda amalga oshirish dasturi, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi. 2020-yil 10-aprelda esa Davlatimiz rahbari tomonidan "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni imzolanib, 21-oktabr O'zbek tili bayrami kuni etib belgilandi. Davlatimiz rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti anjumanida jahon hamjamiyatiga qarata tarixda birinchi marta hammani birday to'liqlantirgan, O'zbekiston g'ururini yuksakka ko'targan tarixiy nutqini o'z ona tilimizda so'zladi. Ma'lumk, taniqli olim German Vamberi "Abulg'oziy Bahodirxonning ko'pgina ishlari Boburni xotirga tushiradi, jahon uning "Shajarai turk" nomli tarixiy asari uchun minnatdordir", deb yozgandi o'zining "Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi" asarida. Bunda olim Bobur bilan Abulg'oziyning el-yurtni obod va ozod ko'rish ishtiyoqida astoydil harakat qilgan ikki davlat arbobi sifatidagi o'xshash jihatlarini, ayni paytda, ularning tengi yo'q ijod namunalarini nazarda tutgan. Buning boisi juda qadim voqea va hodisalar haqidagi ma'lumotlar, yozma manbalar deyarli saqlanib qolmaganligida, mavjudlari esa asosan inson ruhiyati, aqlu idroki ilohiyot bilan uyg'unlashib, unga bir irmoq singari qo'shilib ketishidadir. Eng muhimi, bu afsonalarni kim qanday tushunishida emas, balki ular ilm koni, hikmat xazinasini ekanligidadir. Shu nuqtayi nazardan, Davlatimiz rahbarining o'zbek tiliga qaratgan e'tibor, hurmati, uning mavqeyini ko'tarishga qo'shgan hissi uchun Yangi O'zbekiston tarixi undan minnatdordir degim keladi.

Ushbu davr o'zbek tili taraqqiyoti yo'lida "ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon"ga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bular albatta, "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" degan ezgu g'oya negizida amalga oshirildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan sohani rivojlantirishning huquqiy jihatini ta'minlanishiga alohida e'tibor bergan bo'lsalar, bu hujjatlarda belgilangan ishlarni bajarish Innovatsion rivojlanish vazirligi oldiga katta vazifalarni qo'ydi. Mazkur vazifalarni hal etish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari loyihalarini shakllantirish va monitoring qilishning butunlay yangi samarali tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Bugungi kungacha ushbu tanlovning 34 turi e'lon qilingan bo'lsa, u tanlovlarda o'zbek tili va adabiyotini tadqiq etish masalalariga ham salmoqli o'rin ajratilgan.

E'lon qilingan tanlovlarga topshirilgan loyihalar o'zining ijobiy xulosasini olib, o'zbek tilining jamiyatdagi va xalqaro miqyosdagi mavqeyi hamda nufuzini oshirish, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida davlat tilining to'laqonli joriy etilishi bo'yicha mavjud muammolarning ilmiy yechimini ta'minlash maqsadida hozirgi kunda ilmiy faoliyatga oid

davlat dasturlari doirasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti olimlari tomonidan qator loyihalar bajarilmoqda.

Hozirgi o'quv jarayonida odatdagi dars usullaridan tashqari yangi texnologiya asosida noan'anaviy darslarni tashkil qilish rivojlanib bormoqda. O'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan ijobiy intilish va ehtiyojni shakllantirish, o'zaro bellashuv elementlarini joriy etish hamda o'quvchilarda muntazam ravishda o'qishga qiziqish uyg'otish maqsadida yangi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini izlashda ijobiy faollikni oshirish zarur bo'lib qoldi.

Ta'lim rivojining buguni va istiqboli bugun sinfda dars berayotgan o'qituvchiga ko'p jihatdan bog'liq. Zero, o'qituvchi maktabda asosiy figura hisoblanar ekan, u o'ziga bildirilgan ishonch, yosh avlod tarbiyasidek murakkab, mas'uliyatli vazifani sidqidildan bajarmog'i zarur. O'qish sifatini yanada oshirish davr talabi bo'lib qolgan shu kunlarda darslarni noan'anaviy usulda olib borish keng yo'lga qo'yilgan. Ta'lim jarayonini yangi mazmun va shaklda yo'lga qo'yish masalasi, eng avvalo, ona tili ta'limiga taalluqlidir. Dars orqali ilmiy yangiliklar va axloqiy tarbiya o'quvchilarga yetkaziladi. Bugungi kunda darslarimizni zamonaviy ruhda tashkil etib, noan'anaviy usullardan foydalanmay, har bir darsni san'at darajasiga ko'tarmay turib, belgilangan natijaga, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

O'zbek xalqi yoshlarini har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash, yangi zamon kishisini shakllantirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Sir emaski, yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash va yuksak fazilatli insonni voyaga yetkazish juda murakkab va mashaqqatli ishdir. shuning uchun mas'uliyatli masalaga har bir davrda zamonaning ilg'or shaxslari mas'uliyat bilan yondashganlar va ta'limtarbiyaning qulay usullarini qidirganlar. XV asrning mashhur mutafakkiri Davoniy kishi xususiyatlari ikki xil: biri tug'ma, ikkinchisi hayot jarayonida paydo bo'ladigan xususiyatlar deb ajratadi va tug'ma xususiyatlarni tan olgan holda hayot jarayonida paydo bo'ladigan xususiyatlarni inson kamoloti uchun eng muhim omil deb hisoblaydi.

Darslarni noan'anaviy usulda tashkil etish, darslarning turli bosqichlarida o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning tafakkurini o'stirish zarur. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darslarida quyidagi o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni yanada faollikka chaqirishi shubhasiz.

“Fonetika” bo'limida:

1. “Tushirilgan harfni qo'ying” o'yini

Bu o'yin o'quvchilarga o'tilgan mavzuni o'zlashtirish hamda savodxonligini oshirishda yaqindan yordam beradi.

Masalan: X yoki H Mu...tor,

A...mad yoki b yo p kito..., makta... va shu kabi.

2. “Harf jildirish” o’yini

Ushbu o’yin o’quvchilarning fikrlash doirasini o’stiradi va so’z boyligini kengaytiradi.

Masalan: 5 ta 5 harfli so’z yoziladi. 1-so’zda a harfi 1-o’rinda, 2-so’zda 2- o’rinda va shu kabi.

aholi - bahor - arava - lug’at - piyola

3. “Kim tez?” o’yini

Bu o’yindan alfavit mavzusini o’tganda foydalanish mumkin.

O’quvchilar guruhlariga bo’linadi hamda kim tez alfavit tartibida so’zlar yoza oladi deb mashq berish mumkin.

Bu o’yinni murakkablashtirish uchun 2 -yoki 3- harfi alfavit tartiblar bo’lishini topshiriq qilib beriladi.

Masalan: savdo, abgor.....

4. “So’nggi bo’g’inga so’z yasash” o’yini.

Bo’g’in mavzusidan so’ng foydalanish mumkin bo’lgan o’yin. Sa/vol – voli/da – da/da – Da/mir – mi/rob

O’quvchilarni ona tili fanidan yuksak bilim va salohiyatli qilish bugungi kunning talabidir. Nega deganda, hozirda yurtboshimiz tomonidan yosh avlodning chet tillarini bilish darajasini yaxshilashga e’tibor qaratilib, bugungi kunda yoshlarimiz ikkita emas, to’rtta tilni bilishlari zarurligi uqtirilayotgan bir davrda , o’quvchilarning avvalo, o’z ona tillarini yaxshi bilishlari va ona tilida ravon so’zlay va fikrlay olish qobiliyatlarining mavjudligi ularning chet tillarini tez va oson o’zlashtirishlariga zamin yaratadi. Bu esa maktablardagi ona tili va adabiyot fani o’qituvchilariga katta mas’uliyatli vazifa yuklaydi.

Xulosa qilib aytganda, Vatan, xalq kelajagi, o’zlikni anglash, o’z ona tilisining sofligini ta’minlash yo’lida ogoh, fidokor bo’lmaslik mumkin emas, bu har bir inson umrining asosiy mazmun va mohiyatini tashkil qiladi. Bu da’vatkor so’zlar hech vaqt o’z ahamiyatini yo’qotmaydi, chunki qadriyati mustahkam xalqimiz tilimizga e’tiborini hech ham susaytirmaydi. Hamma vaqt zamonaviy bo’lib yashayveradi. Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash borasida hali ko’p ishlar oldinda turgan hozirgi vaqtda bu shiorga qayta-qayta murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni, 1997-yi, 29- avgust.
2. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, 1997-yi, 29-avgust.
3. Y. G’ulomov “O’zbek tili o’qitish metodikasi” Toshkent-1998-yil.